



**KO'CHANI
KULDIRAYOTGAN
BOLALAR**

2-bet



**FARZANDLAR KAMOLI -
YURT ISTIQBOLI!**

3-6-betlar



**YAXSHI ASAR
NONGA O'XSHAYDI**

7-bet

www.tongyulduzi.uz

TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
22-noyabr
N:47
(66796)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

KITOB O'QIYDIGAN AVLOD VOYAGA YETAYAPTI

Poytaxtdagi Sobir Rahimov nomli Sharqshunoslik akademik litseyida o'tkazilgan tadbir talabalar va mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Taniqli adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik hamda filologiya fanlari nomzodi Abdumurod Tilavov bilan bo'lgan uchrashuv savol-javoblarga boy bo'ldi. Nutq madaniyati fani o'qituvchisi Dilorom opa Hidoyatova tashabbusi hamda Surayyo Akromova, Dilbar Ibodova kabi tajribali ustozlar ko'magida uchrashuvga puxta hozirlik ko'rilgani sezildi. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Izzatilla aka Rahimov vatanparvar va fidoyi insonlarga bag'ishlangan she'rini o'qib, tadbirni ochib berdi.

Talabalar Tohir Malik kitoblari bilan yaqindan tanish ekanliklari bois, savol beruvchilarning adog'i ko'rinmasdi. Yozuvchining yoshlik yillari, oilasi haqida, ayni damda nimalar ustida ishlayotganini bilish bolalar uchun maroqli edi. Shu o'rinda ko'nglimizdan o'tgan bir fikrni ham aytib o'tmoqchi edik:

3-bosqich talabarlari ishtirokidagi mazkur tadbir soat 13:00 belgilangan edi. Ma'lumki, bu vaqtda talabalar darslari tugab, uyga shoshayotgan bo'ladilar. Bunday paytda uchrashuv dilga sig'armidi, dersiz?! Sig'arkan. Biz buning guvohi bo'ldik. Kitob o'qiydigan, ilmga chanqoq avlod voyaga yetayotganiga yana bir bor amin bo'ldik. Tadbir uzoq davom etganiga qaramay hech kimning turgisi yo'q edi. Inson uchun eng vafoli do'st hisoblangan kitob haqidagi muloqotlar davom etaversin!

Yusuf ABDULLAYEV



Qadri ustozlar, o'quvchilar. Siz sevimli nashringizga obuna bo'ldingizmi?

Nashr indeksi: 169

KO'CHANI KULDIRAYOTGAN BOLALAR

Men har kuni ishdan mahalla oralab uyga kelaman, ko'pincha ariq va maydonlardagi sochilib yotgan chiqindi uyumlariga achinib qarayman. Esingizda bo'lsa, o'tgan oyda radio, televideniye va matbuot orqali azim poytaxt va mamlakatimiz hududlarining ozodagarchiligi haqida tanqidiy lavhalar namoyish etildi va bu sa'y-harakat juda ajoyib natija berdi. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga bu harakat ijobiy ta'sir etdi.

Kuni kecha kechki payt Sirg'ali tumanining 5-mavzesi oralab o'tayotganimda, bir guruh bolalar – o'smir o'g'il-qizlar uylari oldidagi maydonni bo'lib olishib, tozalashayotgan edi.

– Hasharga chiqibsizlar-da! – dedim ularning hafsala bilan ishlayotganlaridan quvonib. – Bu yerlarni tozalab qo'yinglar, deb ota-onalaring buyurdimi? – deb so'radim atayin.

Qo'lida supurgi tutgan o'n ikki yoshlardagi bola ko'zlari jovdirab menga tikildi:

– O'zimiz chiqdik. Bu yerlarni tozalab qo'ysak, chiroyli bo'ladi.

Bola shuni tushunibdimi, bu katta gap.

Ularining yonidan o'tayotgan sakkiz yoshlardagi qizcha qo'lidagi muzqaymoq qog'ozini yerga tashladi. Bola yugurib borib, uning oldini to'sdi:

– Ol buningni! Ana, chelakka tashla!


Uning bu harakati meni quvontirdi. Chor-atrofga, o'zimizga e'tiborli bo'lish yaxshi holat. «Nimani eksang, shuni o'rsan!» Bolalar qalbiga yaxshilik urug'ini sochayotgan ekanmiz, ertaga o'sha yaxshilik o'zimizga xizmat qiladi. Bu borada bolalar tarbiyasi biz uchun eng muhimdir.

Biz o'zimiz ham uyimiz oldini o'z kuchimiz bilan qayta ta'mirladik, bo'yadik, gullar ekdik. Qo'shni bola: «Men ham yordam beray, ish bo'lsa, aytinglar», dedi.

BUXOROLIK RASSOM QIZ

Hovli etagida loydan har xil narsalar yasashga urinayotgan kichik Gulnoz uni maroq bilan kuzatib turgan dadasiga e'tibor ham bermasdi. U butun diqqatini quyonchasining qulog'ini o'xshatishga qaratgandi.

O'sha kichik qizaloq — Gulnoz Jalolova bugun Buxoro shahridagi tasviriy va amaliy san'at litsey-



internatining 8-sinf o'quvchisi. Bu yerda u musavvirlik sirlarini qunt bilan o'rgana boshladi. Mohir rassom Bahrom aka Gulov unga ustozlik qilyapti.

Gulnoz 2009-yili «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining «YE» guruhi «Tasviriy va amaliy san'at» nominatsiyasi bo'yicha viloyat miqyosida g'olib bo'lib, Respublika miqyosida ishtirok etdi.

Yosh rassomning ijodidan sharqiroq sharshalar-u bepoyon qir-adirlar tasvirlangan tabiat manzaralari, bejirim kiyim-kechak andozalari o'rin olgan.

Gulnoz kelajakda yetuk dizayner-rassom bo'lishni, betakror andozalar yaratib, yurtimiz dovrug'ini olamga taratishga o'z hissasini qo'shmoqchi. Uning ijod yo'lida biz ham ulkan parvozlar tilaymiz.

Maftuna AHMEDOVA



Bu quvonarli hol. Ular taqlidchi bo'lishadi. Ana shundan ham o'rinli foydalanish kerak, deb o'ylayman.

Keyingi oylarda poytaxt, viloyat markazlari ancha obod bo'ldi, endi chiqindi tashlash ham tartibga keldi va bu sa'y-harakatlarni davom ettirish kerak.

Bugun ertalab yelim idishlarni yig'ib yurgan o'smimi ko'rdim.

– Uka, nima harakat? – deb so'radim undan.

– Yelim idishlar bu yerlarni xunuk ko'rsatib turibdi, ularni yig'ib topshiraman! – dedi u.

Xulosa shuki, bu xayrli tadbirimiz o'smirlarimizga o'z ta'sirini o'tkazdi. Shu narsani tushunish kerakki, hovli, uyimizni, maydonlarni tozalash, chiqindilarni maxsus joylarga tashlash, yelim idishlarni yig'ib olish oddiy hodisa emas, bu bizning sog'lig'imiz, mamlakatimiz obodonchiligi, yurtimizga tashrif buyurayotgan nozik mehmonlar oldida yuzimizning yorug' bo'lishi, qolaversa, o'zimizning g'ururimiz, iftixorimiz hamdir.

Hazrat Navoiy bobongiz shunday deydilar:

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,

Balki bu naf, o'zingga ko'prakdurur.

Agar kishilarga foyda yetkazayotgan ekansan, balki bundan o'zingga foyda ko'proqdur.

Xususan, ozodagarchilikda ana shunday katta hikmat bor, aziz do'stlar!

To'liqin HAYIT



Navoiyni o'rganamiz

Donavu dur so'zini afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.

So'z – durdona. Bir dono so'z bilan jahonni obod etish mumkin. Bir yomon so'z bilan uni kuydirib yuborish ham hech gap emas. Shu bois, oltin, kumush, hattoki dur ham uning oldida afsona, ya'ni hech narsa emas.

Baxt – bitta so'z.

Yovuzlik ham bitta so'z.

Aziz o'quvchim, Hazrat Navoiy kabi so'zni ulug' bil!



Bundan 4 yil muqaddam Yunusobodagi 17-lingvistik maktabning 6-sinf o'quvchisi Sevinch Norqobilova BMT va YUNESKO tomonidan tashkil etilgan 157 ta davlat ishtirok etgan nufuzli tadbirda muvaffaqiyatli qatnashib, «Taraqqiyot» nomli she'ri bilan faxrli birinchi o'rinni egallagan. Hozirda u Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyda tahsil olmoqda. Sevinch litseydagi eng a'lochi, intizomli o'quvchilardan biri. Ustozlarini hurmat qiladi, sinfdoshlarini juda yaxshi ko'radi. O'tgan yilgi olimpiadada adabiyot yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rinni, Gyote instituti tomonidan respublika o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan tanlovda nemis tilida insho yozib, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Uning ingliz, nemis, turk, rus tillarida ravon gapirishi nafaqat tengdoshlari, balki o'qituvchilarining ham havasini keltiradi.

– Litseyda o'qiyapman, – deydi Sevinch biz bilan suhbatda. – Odatlanganimdek, ko'p kitob o'qiyman. Kitob qahramonlari bilan yashash haqiqatan ham hayajonli...

Maylimi, she'rlarimdan birini o'qib bersam?!

VATANIMGA O'XSHAB KETAMAN

(Chet ellik dugonamga javob maktubim)

Vatanimga beraymi ta'rif,

Quyosh yerda turganday xuddi.

Ishonaman, ko'rmagansan Sen

Vatanimga o'xshagan yurtini.

Xat yozasan uzundan-uzoq:

«Sevinch, kimga o'xshaysan?» deysan.

Dilim pok, niyatga yetaman,

Men ko'proq –

Vatanimga o'xshab ketaman...

– Juda ta'sirli she'r ekan. Nasib etsa, suhbatni «Tong yulduzi» gazetasi o'qiydigan bo'lsam?

– Albatta, biz «Tong yulduzi» gazetasi, Gulxan», «G'uncha» jurnallarining har bir sonini o'qiydigan bo'lsam. Ayniqsa, «Tong yulduzi» biz uchun juda qadrlidir.

Dilfuza ERGASHEVA suhbatlashdi

Hunar shunday ganjki, kamaymas hech dam!

O'qining xarj bilan oxir bo'lar kam,
bog'lagan yoshlarimizga. Xurratimizning ushbu mistralarni aytgimiz keldi:
Nodiraxondek go'li gul zardo'zchi qizlardek hunar egallashga bel
bitan shug'ullanaman, adabiyotlar o'qiyman.
bo'lishi kerak. — deydi u samimiy jilmayib. — Shuning uchun ham sport
— Yaxshi hunar egallash uchun inson ma'nan va jismonan sog'lom
sportning gimnastika turti bilan shug'ullanishga ham fursat topadi.
tadbiqlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelayapti. Serg' ayrat qizimiz Nodiraxon
Shuningdek, u tuman miqyosida o'tkaziladigan barcha tanlovlarda,
o'tkazilgan amaliy san'at tanlovlarda ham birinchi o'rin sohibasi bo'lgan.
2008-yilda «Mustaqillik bayrami» va «Bilimlar kuni» munosabati bilan
tanlovlarda birinchi o'rin egallagan uni yangi-martalar sarti ruhlanardi.
«Zardo'zlik» to'garagining faol a'zosi. «Mening kashfiyotim» ko'rik-
tumanidagi 35-maktabning 8-sinfida o'qiydi. U maktabda tashkil etilgan
Bugungi kunda Nodira Mamadaliyeva Toshkent viloyati, Chinoz
boshladi.
zehrini ishga solib, amaliy san'atning sir-sinoatlarini qunt bilan o'rtna
Onajonining bu gaplari unga dalda bo'ldi. Nodira bor mahorat-yu
chig'ang, toshdan gul undira olasan, — dedi mehribonlik bilan.
— Qizalotim, hunar egallash oson ish emas. Ammo uning uddasidan

Hunar shunday ganjki...



*Nodiraxon amaliy san'atga
mehr qo'yib, zardo'zlik bilan shu-
g'ullana boshlaganida, atigi to'qqiz
yoshda edi. Aavalligina uning ishlari
ko'ngilidagidek chiqmadi. Bundan xafa
bo'lib, biron muddat zardo'zlik ishlarni
tashlab ham qo'ydi. Buni payqagan
onajonisti Sevara opa:*

N Hech e'tibor berganmisiz,
I ko'pchilik ustozlarniz o'zlar tahsil
B olgan bilim darjalarining sobiq
Z bitiruvchilari bo'lishadi, ustozlarga
G havas qilib, bu kasbga mehr
O go'yishadi.
D Li Natalya Alieriyevna ham
G O'rta Osiyoning muvaffaqiyatli
V yatakchi vazifasida ish boshlagan.
A Toshkent Davlat pedagogika
R universiteti muvaffaqiyatli tamomlab,
mana olti yildirki, o'quvchilarga geografiya fanidan saboq
berib kelayapti.
Odatda geografiya faniga qiziquvchi o'quvchilar
unchalik ko'p emas. Lekin Natalyaning saboqlariga
shogirdlari katta qiziqish bilan quloq tutishadi. Boisi, o'z
ustida tinimsiz ishlaydigan, yangilikka intiluvchan ustoz
fanini axborot kommunikatsion texnologiyalardan
foydalanishda olib boradi, o'zi yaratgan elektron dars
ishlanmalaridan unumli foydalanadi. O'z navbatida
shogirdlari ham fan o'limpiadalarining tuman, viloyat
bosqichlarida muvaffaqiyatli qatnashib, ustoz ishonchini
oqlashga intilishadi.
Natalyaning siddiqidan qilgan mehnatlari, izlanishlari
o'z samarasini berdi. «Yilning eng yaxshi o'quvchisi —
2010» ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, viloyatda birinchi,
Respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egalladi.
— Natalya Lidek bilimdon, jonkuyar, izlanuvchan
havas qildi, — deyishadi 1-maktab o'quvchilari faxr bilan.
— O'zimizni bir boqqa, ustozlarni esa ana shu bog'dagi
bog' bonga qiyoslagimiz keldi.



B Hech e'tibor berganmisiz,
I ko'pchilik ustozlarniz o'zlar tahsil
B olgan bilim darjalarining sobiq
Z bitiruvchilari bo'lishadi, ustozlarga
G havas qilib, bu kasbga mehr
O go'yishadi.
D Li Natalya Alieriyevna ham
G O'rta Osiyoning muvaffaqiyatli
V yatakchi vazifasida ish boshlagan.
A Toshkent Davlat pedagogika
R universiteti muvaffaqiyatli tamomlab,
mana olti yildirki, o'quvchilarga geografiya fanidan saboq
berib kelayapti.
Odatda geografiya faniga qiziquvchi o'quvchilar
unchalik ko'p emas. Lekin Natalyaning saboqlariga
shogirdlari katta qiziqish bilan quloq tutishadi. Boisi, o'z
ustida tinimsiz ishlaydigan, yangilikka intiluvchan ustoz
fanini axborot kommunikatsion texnologiyalardan
foydalanishda olib boradi, o'zi yaratgan elektron dars
ishlanmalaridan unumli foydalanadi. O'z navbatida
shogirdlari ham fan o'limpiadalarining tuman, viloyat
bosqichlarida muvaffaqiyatli qatnashib, ustoz ishonchini
oqlashga intilishadi.

**Mazkur sonni tayyorlashda yaqindan yordam
ko'rsatganliklari uchun O'zbekiston
Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Axborot
xizmati rahbari J.Musayevga, Toshkent viloyat
Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini
bajaruvchi A.Azamatovga hamda boshqarma
xodimi M.Xalilovaga o'z minnatdorchiligimizni
bildiramiz.**

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

**T.HAYIT,
F.JALILOVA,
F.ADILOVA,
M.MADRAHIMOVA,
YU.ABDULLAYEV,
GORIFJONOVA
A.KARIMOV,
N.ABDULLAYEVA,
F.SHOYODGOROV,
O.ORIPOV.**

«Tong yulduzi»
Toshkent — 2010

FARZANDLAR KAMOLI - YURT ISTIQBOLI!



Tong yulduzi — 2010

Timb-тинчимас ustoz doimo izlanishda. Bir qarasangiz, o'quvchilarni o'z faniga jab qilib qilib mag'sadida dars ishlamalar, sinflar kesimida nazorat va testlarni yaratayotgan bo'lsa, yana bir qarasangiz, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil qilingan «Sohibkora» o'qituvchisi – 2010» tanlovining viloyat bosqichi g'olibi, respublika bosqichida 3-o'rin sohibi bo'ldi. Shuningdek, viloyat miqyosida tashkil etilgan «Ijodkor o'qituvchilar festivali»da g'olibi bo'lgan va «O'zbekiston»da g'olibi bo'lgan. Darlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha olib borayotgan ilg'or tajribasi nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham ommalashtirildi. Maktabda xotin-qizlar qo'mitasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Gulbahram Gasilova to'rt nafar farzandning



Omadi yil

O'qituvchilik kasbini egallash Gulbahramning bolalikdagi orzusi edi. Toshkent tumanidagi 9-maktabda unga saboq bergan mehridar ustozlariga hawas qilib, bolalik orzusi aniq maqsadga aylandi. Maktabni «Oltin medal» bilan, universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, o'z taqdiri bilan bog'lab, maktabda bosh yetakchi vazifasida ish boshladi. Hozirda maktab bilim darajasida rus tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib mehnat qilyotgan Gulbahram Gasilova ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yuzasidan o'tkazilgan seminar, trening va konferensiyalarda faol ishtirok etsa, o'quvchilarni tuman, viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelishyapti.

Erta-ting, o'chmasdan hali, So'ngi yulduz tog' cho'qqisida, Erta-ting, turgan mahal, Xotgan bo'lsin kun uyg'usida. Erta-ting, xo'rozlar ilk bor, Qichqiray deb gogqanda qano, Erta-ting, ming karra dilbar, Ko'rinadi siz uchun hayot.



ERTA TURING...

Erta-ting, xo'rozlar ilk bor, Qichqiray deb gogqanda qano, Erta-ting, ming karra dilbar, Ko'rinadi siz uchun hayot.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti nomzodi Nozimaxonning bir qancha she'rari, maqolalari tuman va viloyat gazetalarda chop etilgan. «Umidvor nigohlar» she'ri to'plamini nasrdan chiqish arafasida, Sportning qo'lti to'plamini shug'ullanadi. «Umid nihollari» musobabasining viloyat bosqichida ishtirok etib, sovrinni o'rinni egallagan. Maktabda tashkil etilgan «Oy nomma» raqs dastasi qatnashchisi. Raqs bilan doimiy shug'ullanadi. Quyida uning ijodidan namuna o'qiydiz.



Nozima Oxunova Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 53-maktabning 9-sinfida o'qiydi. She'riyatga ixtlosi baland bu qizimiz 2010-yil tuman miqyosida o'tkazilgan «Yosh galam-kashlar» ko'rik-tanlovining g'olibi bo'ldi.

Qadimgi CHOCH

Bugun an'anamizga muvofiq, Toshkent viloyatiga bag'ishlangan maxsus sonimizni e'tiboringizga havola etmoqdami. Siz bungacha, aziz muxlislar, Xorazm, Farg'ona, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida ta'lim olayotgan tengdoshlaringizning hayoti bilan tanishdingiz. Ehtimol, ularning ko'pchiligi bilan xat yozishayotgan bo'lsangiz, ajab emas. Do'stlik – qudratli kuch. Yaxshi do'stlarning ko'p bo'lishiga nima yetsin?!



Xullas, bugun Toshkent viloyatiga sayohat qilamiz. Avvalo, Toshkent tarixi haqida ikki og'iz so'z: «Tarixni bilmog' – o'zlikni anglamoq», deydi dono xalqimiz. Qadimgi Choch tarixi to'g'risidagi kichik suhbat Sizga manzur bo'ladi, deb o'ylaymiz!

«TONG YULDUZI» O'QIYMAN

«Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini maroq bilan o'qib boraman. Undagi tengdoshlarim hayoti, yutuq va o'ylari meni qiziqtiradi. Shu sababli, birinchilar qatorida bu gazetaga obuna bo'ldim.

Ko'pincha tengdoshlarim menga:

– Sen ko'plab ma'lumotlarni qayerdan bilasan? – deb so'rashadi.

Men ularga aynan «Tong yulduzi» nomini aytaman va gazetaning imkoniyatlarini tushuntiraman.

Men qatori ko'plab tengdoshlarim ham «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishgan. Chunki ularning ko'pchiligi a'lo bahoga o'qib, barkamol avlod yoshlari qatoridan o'rin olish orzusida ulg'ayayptilar.

Sadoqat SOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
22-maktab o'quvchisi



Baxtiyor NURALIYEV,
Bo'ka shahri

CHUMOLI

Erta-yu kech tinmas hech,
Zahmat chekib chumoli.
Mehnat bilan band doim,
Uning fikr-u xayoli.



Baxtyor SOATOV
Toshkent viloyati,
Parkent tumanidagi 1-umumta'lim
maktab o'qituvchisi



So'z salomdan boshlanur,
Xush kalomdan boshlanur,
Insomning asli zoti,
Ulug' nomdan boshlanur.
Baxtyormen baxti bor,
O'z kasbida shaxti bor.
Qalbida ilm-u zayo,
Ustoz degan laxti bor.
O'qidin, hikmat topdin,
Ei ichra hurmat topdin.
Havsga ko'ngil ochdin,
Hasadga eshik yopdin.
Odam muallim o'rgan,
Azim bobo derdilar.
Onam ko'tra momo,
Eidan izzati ko'rdilar.
Bugun o'zim otaman,
O'g'lim ham, qizlarim bor.
Shogirdlarim sha'nindir,
O'rinda izzatim bor.
Maktabim sharaf-shonim,
Har tongda uchib borum.
Har bola jon-jahonim,
Xayolda quchib borum.

XAYOLNI QUCHIB BORGUM

**MEN BILAN
FAXRLANISHSA...**

**Men Burxon
Soyibjonov Toshkent
viloyati, Toshkent
tumanidagi 3-
maktabning 6-sinfida
o'qiyman. Fanlardan
yaxshi o'qishga
harakat qilaman.
Ayniqsa, botanika,
tariq, adabiyot
fanlariga qiziqaman.
Kelajakda yaxshi
inson bo'lib kamol
topishni, ota-onam,
ustozlarim men bilan
faxrlanishlarini
sohlayman. Buning
uchun esa ko'p
o'qishim, izlanishim
kerakligini ham
bilaman. «Tong
yulduzi»ni doimo
o'qib boraman.**

Qadimda bir faylasuf: «Dunyoda odamlar meni yaxshi nom bilan yod etislar desang, faqat ezgu amallarga, ibratli ishlariga qo'l urgin», deb yozgan ekan. Ustozlarimiz aynan shunday ezgulikda betimol insondirlar. Shuning uchun ham ularni doimo qadrlaymiz, e'zozlaymiz.

So'lim Toshkent viloyatida ham bu muqaddas kasbni ardoqlab kelayotgan, unda fidoyiligi bois qadr topayotgan ustozlar talaygina Viloyatning Yangiyo'l shahridagi 3-umumta'lim maktabida yosh avlodga mustaqil madaniyatidan saboq berib kelayotgan Difiyuza Orpova ana shunday daryoqabli insonlardan biri.

Yunus Rajabiy nomi Toshkent pedagogika bilim yurtini tamomlab, bolalar bog'chasida musiqqa rahbari bo'lib ish boshlagan Difiyuzaxon bilimaganlarini o'rganib, bilimlarini hamkasblariga ham o'rgatib kelayapti. Uning bir qator dars ishlanmalari, ilmiy maqolalari «Ma'rifat», «Uchitel Uzbekistana» kabi respublika nashrlarida, shuningdek, «Yangiyo'l» gazetasida munozariy bilimlari chiqur o'zlashtirishda yangi pedagogiyalardan foydalanib, darsini mazmunli tashkil qiladi. O'quvchilari shahar miqyosidagi san'at bayramiga bag'ishlangan radbrlarda faol ishtirok etish bilan birga, turli tanlovlarning shahar va viloyat bosqichlarida faxrli o'rnlarni egallab kelishmoqda.

O'z ushida tammsiz ishlaydigan, iniluvchan ustoz Difiyuza Orpova mazkur yilda «Yilning eng yaxshi o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, viloyatda birinchi, Respublika bosqichida esa faxrli 2-o'rinni egalladi.



Daryoqabli Insonlar

Ustoz! Uning stymosi shunchalar mukammal, atvori shunchalar musassaki, bamtisoli O'looh dunyoning bor zakovat-yu mehr-mahoratini shu jussaga jo aylagandek. U shunchalar buyukki, ta'rifi ni so'zlab, ado qilmog' dushvor.

– Toshkent qadimda nima deb atalgan?

– Qadimda Toshkentni Choch deb ataganlar. Xitoy manbaalarida bu viloyat Shi yoki Chjeshi deb nomlangan. Shu bois, o'zga tarixiy kitoblarni o'qiyotganingizda, masalaning ana shu tomoniga e'tibor berishingiz zarur.

– V-VI asrlarda bu hududda Choch va Eloq davlatlari mavjud bo'lgan ekan, ular qachon birlashishgan?

– Chochning poytaxti Chochkant shahri bo'lib, Mingo'rik tepaligi o'rinda edi. Podshohini Tudun deb yuritganlar.

Eloqning poytaxti Tunkat, hokimini dehqon deb atashgan.

V asrda Choch viloyati Eftalitlar davlatiga, VI asrda G'arbiy turk hoqonligiga, VIII asrda Choch bilan Eloq birlashib, yagona davlatga aylanadi.

– Qanday qazilma boyliklar bo'lgan?

– Choch poytaxtining atroflari obod bo'lib, 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, dehqon qo'rg'onlari, ko'shklar, obod qishloqlarga ega edi.

Chotqol va Qurama tog'larida joylashgan Ko'hisim, Lashkarak va Koni Mansurdan kumush, Qo'shbuluq va Qizilolma konlaridan oltin, Ungurlikon va Oqtuproq konlaridan esa feruza qazib olingan.

– Hunarmandchilik qanday rivojlangan?

– Chochning mashhur ustalari oltin, kumush va boshqa metallardan zeb-u ziynatlar, qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari yasashgan. Teri mahsulotlari ishlab chiqarganlar. Sopol va shisha buyumlari yasab, ichki va tashqi bozorlarda sotishgan.

– Pul muomalasi qanday holatda edi?

– Bu borada shuni aytish kerakki, VII-VIII asrlarda Chochning o'zida mis va kumush tangalar yasaydigan zarbxonasi mavjud edi. Shundan ham ko'rinish turibdiki, pul muomalasi qat'iy tartibda olib borilgan.

– O'sha davrlarda ayollarga munosabat qanday edi?

– Chochning o'sha davrdagi ayrim tangalarida podshoh bilan birga ayoli tasviri tushirilgan pullar uchraydi. Demak, ayollar mavqei ham o'z o'rinda bo'lgan.

– Hozirgi kunda Toshkent viloyatida nechta tuman, shahar va qishloq bor?

– 1995-yildagi ma'lumotlarga binoan viloyatda 15 ta tuman, 17 ta shahar va 146 ta qishloq mavjud. Viloyatning markazi mam-lakatimizning go'zal va betakror poytaxti Toshkent shahri hisoblanadi.

— *Samimiy fikrlaringiz uchun tashakkur!*

tomondan sababsiz dars qoldirish holatlarining oldini olinmoqda.

nomli maxsus profilaktik tadbirlarni o'tkazib turamiz. Bu esa o'quvchilar iboraning ishlatilmasligini xohladim. Shunga qaramay, «Davomlat va o'smir» shartlari muhayyo qilinam. Bolalarimiz ham bunga «lababay» deb javob berishlari kerak. Men barcha maktablarimizda «Darsga kelmad!» degan

— Davlatimiz tomondan yoshlarning bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bolalarimiz ham bunga «lababay» deb javob berishlari kerak. Men barcha maktablarimizda «Darsga kelmad!» degan

— O'quvchilarning darsga qatnashishlari borasida ham yaxshi natijalar sezilmogda. Bunga qanday erishilmogda?

o'quvchilarning yaxshi natijalarga erishilmogdalar.

sol tennis, taekvando, erkin kurash, futbol va yengil atletika turlari bo'yicha tennis to'garaklarining a'zolari soni 8,2 foizga oshdi. Sportning gimnastika, bilan shug'ullanishlariga alohida e'tibor qaratilayotgani bois, gimnastika, stol

— Bu yil turli sport to'garaklarida ishtirok etayotgan o'quvchilar soni o'rgan yildagidan 4,6 foizga ko'paydi. Maktablarda o'quvchi qizlarni sport to'garaklarida o'qitish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

— Yoshlarning barkamol bo'lib voyaga yetishlarida jismoniy tarbiyaning ham ahamiyati katta. Viloyatda bu sohaga ham alohida e'tibor berilayotganidan xabarimiz bor.

— Ustoz va shogird an'analari haqida bitimqchi edik.

— O'quvchilarga amaliy yordam berish, ayniqsa, maktablardagi yosh o'quvchilarga ish jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'yicha yo'llanmalar berish, pedagogik jamoalardagi tajribali o'quvchilarga izdoshlarni biriktirish

magasida, 19 ta fanlar yo'nalishi bo'yicha 349 nafar «Ustoz va shogird maktab»lari tashkil etilgan. Bu esa juda yaxshi samara bermogda.

— Ustoz va shogird an'analari haqida bitimqchi edik.

— O'quvchilarga amaliy yordam berish, ayniqsa, maktablardagi yosh o'quvchilarga ish jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'yicha yo'llanmalar berish, pedagogik jamoalardagi tajribali o'quvchilarga izdoshlarni biriktirish

magasida, 19 ta fanlar yo'nalishi bo'yicha 349 nafar «Ustoz va shogird maktab»lari tashkil etilgan. Bu esa juda yaxshi samara bermogda.

— Ustoz va shogird an'analari haqida bitimqchi edik.

— O'quvchilarga amaliy yordam berish, ayniqsa, maktablardagi yosh o'quvchilarga ish jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'yicha yo'llanmalar berish, pedagogik jamoalardagi tajribali o'quvchilarga izdoshlarni biriktirish

magasida, 19 ta fanlar yo'nalishi bo'yicha 349 nafar «Ustoz va shogird maktab»lari tashkil etilgan. Bu esa juda yaxshi samara bermogda.

TOSHKENT VILOYATI: TA'LIMDA NIMA YANGILIK?

Toshkent viloyati o'zining betakror, go'zal manzaralari bilan

yurtdoshlarimizning nazariga tushgan maskanlardan masoklanadi. Uning so'lim tabiati kishi ko'zini quvontirib, hamisha o'ziga chorlab turadi.

Bugun biz sizlarni poytaxt viloyatidagi tengdoshlaringiz hayoti, ularning o'qish va jamoat

ishlaridagi yutuqlari bilan tanishtirish uchun maxsus sahifa ajratdik. Shu maqsadda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi

boshlig'i vazifasini bajaruvchi Azimjon AZAMATOV bilan suhbatda bo'ldik.

— Suhbatimiz avvalida viloyatdagi ta'lim muassasalari haqida ma'lumot bersangiz.

— Viloyatimizda 889 maktab mavjud bo'lib, ularda ta'lim o'zbek, rus, qozoq, tojik va qirg'iz tillarida olib boriladi.

Shuningdek, 489 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida jajji bolajonlarni maktabga tayyorlash ishlari keng yo'lga qo'yilgan. 33 ta musiqa va san'at maktablari, 40 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilar salohiyatini oshirish uchun tajribali ustoz va marabbiylar mehnat qilmoqdalar.

— Bugungi kunda o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi ishlarga ham to'xtalib o'tsangiz.

— Viloyat xalq ta'limi tasarrufidagi barcha shahar, tuman xalq ta'limi bo'limlarida har oyning birinchi payshanba kuni «Maktab kuni» deb e'lon qilingan. Shu kuni «Ochiq eshiklar kuni» bo'lib, unda ota-onalar va turli soha vakillari ishtirok etishadi. Bunday tadbirlar yoshlarimiz qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini oshirishga xizmat qilmoqda.

— Viloyat o'quvchilari turli ko'rik-tanlovlar, musobaqalarda ishtirok etib, sovrindorlar qatoridan joy olib kelayotgan ekanlar.

— Men bu o'rinda, avvalo, fidoyi ustozlarning jonkuyarligini alohida ta'kidlamogchi

A'loch!, rassom, sportchi!...

Viloyat bo'yilab qilingan saratimiz chog'ida ko'plab iqtidorli yoshlar bilan tumanidagi 12-umumta'lim maktablarida buning 7-«B» sinf o'quvchisi Shohista Satorova ana shunday serqitra fiddokor qizlarimizdan biri. Maktabda a'loqa o'qiydi, ingliz tilini mukammal o'rganaydi. Rasm chizish eng sevimli mashg'uloti. Tabiiat manzaralari, etrak qahramonlarining rasmlarini chizishni yoqtiradi. «Yangi avlod» bolalar fiddoyi festivalida o'z fiddo namunalari bilan bir necha bor ishtirok etgan.

Sport bilan ham samimiy do'stlashgan Shohista «Barkamol avlod yili» munosabati bilan sportning badiy gimnastika turi bo'yicha qizlar o'rtasida o'tkazilgan tanlovda faxrli birinchi o'rinni egallab, maktabi sha'nini yana bir pog'ona ko'tardi...

Yo'lingiz tushib, mazkur maktabga borib, Shohista g'anday qiz, deb so'rasangiz, a'loch!, rassom, sportchi qiz, u bizning faxrlimiz, deya javob berishadi.

YETAKCHI QIZ



Ikeda Xosyu Xitoyda yashovchi yaponlar oilasida tug'ilgan. U karate haqida jismonan kuchsiz, ammo ruhan baquvvat jangchi doimo bellashuv taqdirini o'z foydasiga hal etadi, degan g'oyani ilgari surgan. Yana Ikedaning «Siz karatени boshqa birovga zarar yetkazish uchun o'rganmaysiz, bu tabiiat uyg'unligini buzadi. Lekin siz karatени zarar yetkazmogchi bo'lganlarni to'xtatib qolishga o'rgatish uchun o'rganasiz», degan o'rinli fikridan yuqoriroq fikrni topib aytishimiz amrimaholdir.

Musobaqalar sportchini maydonda sinovdan o'tkazadigan tajriba maktabidir. Avvalo, o'ziga ishongan, biror sport turini mukammal egallagan sportchigina maydonga chiqishga jur'at eta oladi. Sadoqat Hasanova ham sportning taekvando ITF yo'nalishini puxta o'rganmogda, shuningdek, bir qator turnirlar g'olibi, ko'k belbog' sohibasi hamdir. Sadoqat opangiz Chinoz tumanidagi 23-maktabda yetakchi bo'lib ishlaydi. Bolalar olamida yashash, ishlash unga ilhom bag'ishlaydi. Sport mashg'ulotlaridan toliqmagan, aksincha, undan ruhiy xotirjamlik topayotgan kichik ustozingiz katta marralar sari ildam bormogda. Uning yaqinda chop etilgan «Hilol» nomli she'riy to'plamini o'qisangiz, ruhiy xotirjamlik hissini tuyasiz.

Yetakchi! Bu so'z yangraganda, ko'z o'ngimizda tinib-tinchimas, izlanuvchan, bolajon insonlar siymosi gavdalanadi.

Sadoqat Hasanova haqida gap ketganda, bu nisbatlar qatoriga «mohir sportchi» degan ta'rifni ham qo'shib qo'yishni unutmang.

To'lqin HAYIT, gazeta Bosh muharriri:

– Biz Siz kabi adabiyotshunos olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etib, fikr-mulohazalaringizni bilishga va shu tariqa o'zbek bolalar adabiyoti rivojiga hissa qo'shishga intilamiz. Sizga ham an'anaviy savol: oqsoqol adabiyotshunos sifatida bolalar adabiyotining qaysi jihatlarga e'tibor qaratish kerak, deb o'ylaysiz?

– Adabiyot – sirli olam. Yozuvchilar sirli olamning o'ziga xos tomonlarini ochib beruvchi insonlardir. Bolalar yozuvchilarini esa universitetda o'qitib, san'at institutida tarbiyalab bo'lmaydi. Bolalar yozuvchisi tug'ma bo'ladi va ular tabiatida bolalarga oid xususiyatlar juda ko'pligi bilan boshqalardan ajralib turadilar. Aziz Abdurazzoq, Hakim Nazir, Quddus Muhammadiy, Xudoyberdi To'xtaboyev, Safar Barnoyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbarlarni ana shunday adiblar sirasiga kiritaman. Ular bilan gaplashsangiz, o'ziga xos dunyoga kirib qolganingizni sezmay qolasiz.

Bola tabiatan istiqbolga intiladi. O'zi ko'rishi kerak bo'lgan narsani izlab topadi. Shu tariqa mif, afsona, virtual dunyo paydo bo'ladi. Natijada, ertangi kun – futurizm vujudga keladi. Futurizm – kelajakka qarash degan ma'noni anglatadi. Hozir jahonda yangi bir nazariy asos paydo bo'lgan. Bu etnofuturizm, ya'ni o'tmishdan kelajakka qarash demakdir. Etnofuturizm modernizmning ildizi hisoblanadi. Bu esa o'z-o'zidan folklorga bog'liqdir. Adabiyot qancha qadimgi bo'lsa, xalqning tamadduni chuqur bo'lsa, shuncha kengayib boraveradi. Shuning uchun ham hozirgi paytda bolalar adabiyotida ham, kattalar adabiyotida ham ildizdan kelib chiqqan holda asarlar yozish yangi quloq yozayapti. Globallashuv zamonida har bir inson o'z kelib chiqishini yaxshi bilishi kerak. Shundanmi, keyingi paytda «Alpomish»ga qiziqish kuchaydi. Negaki, bu dostonida ko'ngilga yaqin nuqtalar ko'p.

Feruza JALILOVA, Bosh muharrir o'rinbosari:

– Bolalar adabiyoti tarbiyaga xizmat qilishi kerakmi? Bu xususda shaxsiy fikringiz qanday?

– To'g'ridan-to'g'ri tarbiya qilishi kerak emas. Bilimsiz o'quvchi orqali bolalarni tarbiyalash Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida mavjud. Quddus Muhammadiyning qoidalaridagi: «Qushlardan ol andoza, patlarin tozalar toza», «O'quvchi maktab borsa, kitobi uyda qolsa», degan satrlar bevosita gaplar.

Bolani tarbiyalash uchun yozilgan asarlar tabiiy chiqmaydi. Asarda tabiiylik bo'lishi kerak.

Feruza ADILOVA, mas'ul kotib:

– «O'tkan kunlar» romanini o'qiganimda, ko'p bora «shaytanat» degan so'zga ko'zim tushgan. Vaholanki, o'z vaqtida sevimli yozuvchimiz Tohir Malikning «Shaytanat» ramanini o'qiganlar: «Zo'r nom topibdi», deya hayratga

Dunyoga tanitish uchun qadriyatni ko'tara bilish kerak.

Yusuf ABDULLAYEV, ma'naviyat bo'limi muharriri:

– 8-10 yil avval shahar ko'chalaridagi yozuvlarda uchraydigan imlo xatolarini tanqid qilgandimiz. Bu masalaga yana yondashdingizmi?


– Dunyoda 2976 ta til bor. Shular orasida yuzta tilga Davlat maqomi berilgan ekan. Tillar ichida o'zbek

borayotganlaridan quvonyapman. Talabalar har juma «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasini olib o'qishyapti. Kitobxonlik davri boshlanishiga umid qilaman.

Barno RUSTAMOVA, katta muxbir:

– 70-yillarda Andersenning «Suv parisi» asari meni hayratga solgan. Bunday asarlar hozir ham yaxshi mutolaa qilinadi, negaki, bu kabi asarlar zamon va makon tanlamaydi. O'zbek adabiyoti namunalari ham dunyo miqyosida sevib o'qilishi uchun nimalar qilinishi kerak?

– Har bir millatda bola bor. Millati va tabiatidan qat'iy nazar bolalarda o'ziga xoslik mavjud. Andersen, Mark Tven, Janni Rodari, Nikolay Nosov ijodini butun dunyo bolalari sevib o'qiydi. Bu asarlar bola ko'ngliga yo'l topa oladi. Negaki, ularda bolaning qarashlari haqidagi gaplar mujassam. Bu iste'dod bilan bog'liq. Garri Pottermi yozgan adiba-



Tahririyatimizning navbatdagi mehmoni O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori Abdug'afur RASULOV bo'lishini eshitib, uchrashuvda qatnashish istagini bildiradiganlar soni ortib ketdi: mo'jazgina majlislar zali hamkasblarimiz, tahririyatimizda amaliyot o'tayotgan talabalar bilan to'ldi. Nihoyat, intiq kutilgan mehmonimiz keldilar. O'zbegining go'zal odatlari – iliqqina salomlikdan so'ng, ustozga atalgan savollar navbatma-navbat berila boshlandi:

YAXSHI ASAR NONGGA O'XSHAYDI

tushishgan edi...

– Buyuk odamlar qarashlarida yaqinliklar bo'ladi. Chingiz Aytmatov «Alpomish»ni o'qiganmi, yo'qmi, bilmayman. Lekin yozuvchi asarlarida «Alpomish» dostonidagi Qoranor tuyenaning nomi keltirilgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkin, ba'zida katta yozuvchilarning ham fikrlari bir joydan chiqib qoladi.

Axtamqul KARIM, adabiyot bo'limi muharriri:

– Tog'ay Murod, Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov asarlari jahon adabiyoti bilan bellasha oladigan asarlar sirasiga kiradi. Shu asarlarni jahonga olib chiqish uchun nimalarga ko'proq e'tibor berish zarur?

– Yurtboshimiz aytganlaridek, «Dunyoda mamlakatlar ko'p, lekin O'zbekiston bitta!» O'zbekistonni hurmat qiladigan odam uning tilini, adabiyotini hurmat qilishi kerak. Sizing savolingizga kelsak, asarni dunyoga olim tanitadi. Bu asarlarni jahonga chiqarish uchun olimlar o'z ilmiy ishlariga o'zbek adabiyoti namoyandalarini ham kiritishlari lozim. Hozirda yoshlar ingliz, turk tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishmoqda. Lekin o'zbek tilidagi asarlar chet tillarga tarjima qilinmayapti. Adabiyotimizni dunyoga ko'rsata bilish darkor.

tili ham borligi katta gap. Meni tashvishga solayotgan narsa, tilimizdagi go'zal so'zlar unutilyapti. Hech kim tushlik so'zini ishlatmaydi, «obed» so'zi ommalashib ketgan. O'zbek tiliga Davlat maqomi berilganiga 21 yil to'lgan bo'lsa-da, hanuz rus tilini bilishimizni ko'z-ko'zlash uchun rus tilida javob beramiz. O'z tilimizga qanchalik e'tiborli bo'lsak, kichik xatolar katta xatolarga aylanmaydi.

Gulyuz ORIFJONOVA, maktab hayoti bo'limi muharriri:

– Ota-bobolarimizning aytishlaricha, avvallari «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi romanlar ko'pchiliklashib o'qilgan ekan. Hozirgi kunda kattalar u yoqda tursin, hattoki yoshlar ham bu asarlarni to'la o'qib chiqishlari dargumon. Kitobxonlikka davrning ta'siri qanday deb o'ylaysiz?

– Keyingi paytda bolalarda jonlanish bor. Kitob do'konlarida kitob turmayapti. Demak, o'quvchi o'qiyapti. Yaxshi asar havoga, nonga o'xshaydi. Inson hech qachon suvsiz, havosiz, nonsiz yashay olmaydi. Shu narsalar bor ekan, asarlar albatta o'qiladi. Bizning qonimizda asar o'qish bor. Buni hech qachon inkor qilib bo'lmaydi. O'zim hozirgi adabiy jarayon fanidan dars beraman, talabalar gazetxon bo'lib

ni judayam iqtidorli deb aytib bo'lmaydi. Zamonasozlik hamma davrda bo'lgan. Bola ruhiyati Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida chuqur ochib berilgan. Adib asarlari 29 tilga tarjima qilingan. O'zbek adabiyotida kuchli asarlar bisyor. Bunday asarlar dunyo yuzini ko'rishi uchun, avvalo, boshqa tillarga tarjima qilinishi zarur.

T.HAYIT:

– To'g'ri aytdingiz, hozirgi kunda bolalarni tarbiya qilish eng mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. O'ylaymizki, bugungi suhbatimizdan o'quvchilarimiz ham o'zlariga tegishli xulosa chiqarib oladilar. Barchaning nomidan maroqli suhbatigiz uchun tashakkur bildiram.

Gulyuz BAHODIR qizi
yozib oldi



Bog'bondan parvarish ko'rmasa nihol,
Ulg'ayib o'solmas, topolmas kamol!

Bolajonlar, hayotni sevishni uchta shirin mevasi bor ekan. Ular tan salomatligi, ko'ngil rohati-yu, zehning ortishi. Bu uchta shirin meva, albatta, bolalikdan shakllanadi. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos.

Hamza tumanidagi 203-maktabgacha ta'lim muassasasining «Yilning eng obod maskani» ko'rik-tanlovida g'olib bo'lganini eshitdigi-u, obod maskan tomon yo'l oldik.

QUYOSH QO'SHIQ AYTYAPTI

Katta yo'l yoqasida joylashgan mo'jazgina maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'zimiz tushdi-yu, uning anchagina «keksayib» qolganini angladik. Ammo u yer bolalar quvonchi, murabbiylar mehri, atrofning obodligi tufayli o'zgacha fayz kasb etib, yashnab turar edi. Bu maskanga 40 yillik tajribaga ega bo'lgan, bolajon, jonkuyar Mehri opa Madaminova rahbarlik qilar ekan.

Maskanimizga shahrimizning turli tumanlaridan bolajonlar qatnashadi. Bunga sabab, dargohimizning ertaklar olamiga aylanganligi, deb o'ylayman. Bir-biridan zukko, bilimdon bog'cha opalarimiz nafaqat tarbiyachi, balki ertakchi, bog'bon, dehqon hamdirlar, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bog'chamizni gullarga o'ragan, anor-u olmalarning g'arq pishishiga sababchi ham ular. Bu ishlarda shirintoylarimiz ko'makchi bo'lishadi. Shahar tanlovida g'olib chiqamiz, deb sira o'ylamagandik. Ammo mehnatlarimiz o'z samarasini berganidan juda xursand bo'ldik, - deydi Mehri opa mehr bilan.

Quvnoqlar koshonasidagi shodlik bir onda bizni baxtivor bolalikka, betakror go'zallikka oshno etdi. Bu yerdagi yashnab turgan tabiatning o'zi bir mo'jiza. Hattoki, hovlidagi qiyy'os ochilib turgan gullarda, ertak qahramonlarining haykallarida, sport maydonchalarida - bar-



Sportning qadrin bilib,
Chiniqaman mashq qilib.



Kichintoylarimiz milliy qadriyatlarimizni
ulug'lashni o'rganmoqdalar.

F.SHOYODGOROV olgan suratlar

cha-barchasida beg'ubor bolalik olami yashamoqda. Bir so'z bilan aytganda, bu maskanda quyosh go'yo qo'shiq aytmoqda. Zero, barkamol avlodning ertangi kuni, yorug' istiqboli ana shunday tarbiya o'choqlaridan boshlanadi.

Ma'mura
YIGITALI qizi,
Feruza
SOYIBJON qizi

Aziz muxlislar!
Bugun boshqotirmalarni sal boshqacharoq
tayyorladik. Sizga ma'qul bo'lsa, fikr-
mulohazalaringizni yozib yuboring.

1

Geografiya o'qituvchisi
issiq pechka yonida terlab
o'tirgan boladan:

- Qani ayt-chi, Salim,
yer yuzida eng issiq joy
qayer? - deb so'radi.

Salim shunday javob
qildi:

- ...
Toping-chi, u qanday
javob qilgan?

2

O'qituvchi 2-sinf
o'quvchisidan so'radi:
- Karim, nega shu
kungacha bor-yo'g'i o'n-
gacha sanashni o'rganding?

- Men, ulg'aysam ...
bo'laman! - dedi Karim.

Uch nuqta o'rnida
qanday so'z bo'lishi
mumkin?

3

- «O'g'irlamoq» fe'li-
ning kelasi zamon shakli
qanday bo'ladi? - deb so'radi
o'qituvchi.

- ... bo'ladi! - deb javob berdi
o'quvchi.

Uch nuqta o'rnidagi so'zni
topib, bizga yozib
yuboring.

4

Ota:
- O'g'lim, kundalik
daftaring qani?

O'g'il:

- Uni o'rtog'imga
berib yubordim...

U kundaligini nega
o'rtog'iga berib yubordi?

O'ZINGNI SINAB KO'R!

TABIATNI ASRAYLIK!

Maysalarni aylaydi payhon,
Ul zalvorli og'ir qadamlar.
Kunlar kelib bo'lmasin armon,
Tabiatni asrang, odamlar.

U eng mohir musavvir, naqqosh,
Qalamidan yashnar chamanlar.
Maftunkorlik u bilan sirdosh,
Tabiatni asrang, odamlar.



Uning kuch-u qudratin ko'rib,
Ko'zimizda gullar bodomlar.
Loqaydlikdan yuzingiz burib,
Tabiatni asrang, odamlar.

Noyob narsa kam bo'lar, deydi,
Ko'pni ko'rgan dono bobolar.
Axir bizga noz-ne'mat berdi,
Tabiatni asrang, odamlar.

Yer-u osmon hayrat maktabi,
Va g'animat bu oltin damlar.
O'zingizni asragan kabi,
Tabiatni asrang, odamlar.

Diyora RO'ZIYEVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
17-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV

Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 32426
Buyurtma N: J 495